

ASARDA KELINLAR NUTQINING IFODA ETILISHI

Xongeldiyeva Sevara Shuxrat qizi

O'zbek filologiyasi fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish:
o'zbek tili ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

Umurqulov Bekpo'lat

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11923277>

Annotatsiya. Bu maqolada Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" asaridagi kelinlar obrazi o'rtaqidagi o'zaro nutq munosabati va bu munosabatda qo'llaniladigan so'zlarning madaniyat va urf-odat tusiga kirgan ma'nolari borasidagi so'zlar borasida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Kelinlar nutqi, an'anaga aylangan so'zlar, o'zbek xalq maqollarining nutqda ishlatalishi, leksik-semantik tahlil.

EXPRESSION OF BRIDE SPEECH IN THE WORK

Abstract. In this article, there are opinions about the words of the dialogue between the image of the brides in Said Ahmed's "The Rebellion of the Brides" and the cultural and traditional meanings of the words used in this relationship. reported.

Key words: Bride speech, traditional words, use of Uzbek folk proverbs in speech, lexical-semantic analysis.

ВЫРАЖЕНИЕ РЕЧИ НЕВЕСТЫ В РАБОТЕ

Аннотация. В данной статье высказывается мнение о речевой взаимосвязи образа невесты в «Восстании невест» Саида Ахмеда и культурно-традиционных значений слов, используемых в этой взаимосвязи.

Ключевые слова: речь невесты, традиционные слова, использование в речи узбекских народных пословиц, лексико-семантический анализ.

Madaniyat tushunchasi nihoyatda keng bo'lib, u jamiyat hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lган deyarli barcha jarayonlarni, yo'nalishlarni, hodisalarni qamrab oladi[2,12]. O'zbek oilasining o'ziga xos, betakrorligi – o'zbekona odob-axloq, rasm-rusmlar, urf-odat, milliy qadriyatlar, an'analar, ta'lim-tarbiya, ma'naviy yetuklikka intilish kabilarning barhayotligidadir. Jamiyatda kelinlar nutqi ham alohida ahamiyatga ega. Kelinlar nutqining o'ziga xosligi ko'proq ularning kamtarligi va muloyimligida bilinadi. J.Lakoffning ta'kidlashicha, muomala jarayonida ayollar yuqori darajadagi empatiya va o'z suhbatdoshiga nisbatan moslashib ketish kabi xislatlar

bilan farqlanadi, o'z suhbatdoshining mulohazalarini diqqat bilan tinglab, muloqot jarayonida ustun bo'lishga harakat qilmaydi[4,193]. Ayniqsa, qaynona va kelin munosabatida kelinlarning nutqida ko'proq muloyim so'zlar ishlatiladi. Masalan, "Hozir oyijon", "Xo'p bo'ladi oyijon", "Xo'p, mana oyijon", "Xo'p bo'ladi" kabi. Bunday so'zlar ko'proq turkiy xalqlarda, ayniqsa o'zbek kelinlari nutqida o'ziga xos hurmat, an'ana sifatida keng qo'llaniladi. Buni Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'aloni" komediyasida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. "Kelinlar qo'zg'oloni" sovet davrida olingan eng yaxshi kinokomediyalardan biri hisoblanadi. "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasida qaynona va kelinlar nutqiga alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, yozuvchi har bir kelin nutqini o'ziga xos tarzda ko'rsatgan.

Asarda kelinlarning nutqida qaynonaga nisbatan o'zaro hurmat mavjudligini ko'rish mumkin. Masalan:

- Hozir, hozir, oyijon[1,2]! (*Nigora kelin nutqidan*);
- Xo'p bo'ladi[1,4]! (*Muhayyo kelin nutqidan*);
- Meni kechiring oyijon, yoshlik qilibman[1,7]. (*Nigora kelin nutqidan*);
- Xo'p bo'ladi oyijon, ko'zim durbin, qulog'im mikrafon[1,10]. (*Sotti kelin nutqidan*);
- Mana oyijon[1,12]. (*Lutfi kelin nutqidan*);
- Xo'p bo'ladi, oyijon[1,13]. (*Bo'ston kelin nutqidan*)

Bo'ston kelin obrazining har bir nutqida esa "**shu desangiz...**" jumlesi ishlatilganini ko'rishimiz mumkin:

- Shu desangiz...[1,2];
- Patxalim o'lgur, shu desangiz...[1,3]
- Voy o'lay. Shu desangiz...[1,4];
- Mana oyijon, shu desangiz...[1,6];
- Shu desangiz, hech balo bo'lmaydi[1,6];
- Mana, shu desangiz oyijon[1,13];
- Ammo bu pulga, shu desangiz... bolamning o'ziga velosiped olib bersam degandim[1,13];
- Shu desangiz... iltimos, o'shandan bittasini olib bering[1,13];
- Shu desangiz... xo'p bo'ladi, xo'p...[1,13]

Yozuvchi asarda Bo'ston kelin nutqida bu jumlani ishlatish orqali, bu obraz nutqini boshqalardan ajralib turishini ta'minlagan. Asardagi har qaysi kelin nutqi o'ziga xos tarzda ifodalangan. **Bashorat** kelin obrazi nutqi asarda ***o'zbek xalqi maqollari*** bilan ifodalanishi orqali boshqa obrazlar nutqidan farq qiladi:

- Suykalmay joning chiqsin, Ishonmagin do'stingga, somon tiqar po'stingga[1,3];

- Bir tovuqqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlaridek...[1,14];
- Maqol so'z ko'rki, o'zingizdan qolar gap yo'q[1,14];
- Do'st boshga, dushman oyoqqa qaraydi deganlaridek...[1,14]
- Eskisini yamasang esing ketadi, degandek...[1,14];
- “Qudashilik – ming yilchilik”[1,14];
- “Yuz aytganni zahri yo'q”, “Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim”, qo'ying oyi[1,14];
- “Ichingdan chiqqan baloga, qayga boray davoga” – yaxshimanmi, yomonmanmi – oyimni farzandiman[1,15];
- “Qo'ng'iz bolasini oppog'im deyar ekan, tpratikan yumshog'im deyar ekan”, “Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga”[1,15];
- “Menam edim seningdek, sen ham bo'larsan meningdek”, kulmang o'rgilay kulmang[1,20];
- “Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar”[1,25].

Asarda bunday maqollarning kelin obrazi nutqi orqali kitobxonga yetkazlishi bu ajoyib. Chunki o'zbek xalq maqollari, o'zbek xalq og'zaki ijodi sirasiga kiradi va bu maqollarda xalqning milliy madaniyati, ma'naviyati, yashash tarzi, qadriyat va an'analari mujassam. Maqol –og'zaki ijodning eng faol janri. Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umulashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zlarga aytildi[3,201]. Maqollar nutqning ta'sirchanligi va ekspressivligini ta'minlaydi, so'zlovchi nutqida ayrim fikrlarga dalil, ishonch va munosabatni ifodalaydi. Va bu yozuvchining asarni badiyilagini, jozibasini oshirish bilan birgalikda maqollardan keng foydalanganlik mahoratini ko'rsatib beradi.

Shuningdek, asarda tibbiyot sohasiga ham ozgina burulish yasalgan. Qisman asardagi **Mehri** kelin obrazi nutqida **tibbiyotga doir** jumlalarni ko'p uchratishimiz mumkin:

- Og'zidan so'lagi oqyapti. Qazi yedirib turish kerak. Jenshen degan doridan olib kelib beraman. Bo'lmasa yiqilib qoladi[1,4];
- Bitta yo'li A, B, V, G, D vitaminlaridan yeb turish kerak, bo'lmasa holdan toyib qoladi[1,4];
- O'zları nimjonroq edilar-da. Koloriyali ovqatni kam yeydilar. Yo jenshen...[1,6]

Shunday qilib, asardagi har bir kelin obrazi nutqi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda ham o'zbek nutqiy odatlari bo'yicha lingvokulturologiyada hamda nutq madaniyati sohasida bir qancha izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, o'zbek nutqiy odatlarining tadqiqotchisi Sh.Iskandarova o'zbek nutqiy odatlarining gender xususiyatlariga alohida to'xtalib, ayollar o'rtasidagi muloqot jarayonida qo'llanilishi odat tusiga kirgan ayrim so'z va iboralarni quyidagicha qayd qiladi: “**dugonajon, ovsinjon, egachi, aylanay, o'rgilay, gиргиттон,**

qoqindiq, asalim, shirinim, toychog’im va boshqalar. Bular barcha ayollar uchun umumiy til birliklari – ayol, buvi, ona, turmush o’rtog’I, dugona, farzand, opa, singil, amma, xola va notanish kishi bo’lishi mumkin. Bunday holatlarda ularning har birining boshqa bir ayol bilan muloqot odati yana o’ziga xos tarzda shakllangan bo’ladi[5,26]. O’zbek xotin-qizlari nutqiga xos *aylanay*, *girgitton*, *o’rgilay*, *qoqindiq* kabi so’zlar ijobiy ma’no nozikligini ifodalovchi leksik vositalar sanaladi[4,198]. Asarda kelinlar nutqidagi aynan mana shu o’ziga xoslilar asarning qiziqlarliligi, badiiyligi, jozibadorligi, takrorlanmasligini va umrboqiylini ta’minlagan desak, mubolag’a bo’lmaydi.

REFERENCES

1. Said Ahmad “Kelinlar qo’zg’oloni” – www.ziyouz.com kutubxonasi
2. R.Rasulov, Q.Mo’yindinov “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati”, -T.
3. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo’rayev, J.Eshonqulov, A.Tilalov “O’zbek folklori”, darslik –T.; 2020y.
4. Sh.Usmonova “Lingvokulturologiya”, -T.; 2019y.
5. Iskandarova Sh. O’zbek nutq madaniyati muloqot shakllari; Filol. Fanlar diss. Avtoreferati. –Samarqand, 1993y.